

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
IJTIMOIY
FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.X.Djalalova	
Texnologik sivilizatsiya va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning falsafiy asoslari.....	104
Sh.T.Abbosova	
Sun'iy intellekt va ijtimoiy barqarorlikning falsafiy tahlili	108
U.K.Mamayusupov	
Jamiyat rivojlanishida strategik rejalashtirishning ahamiyati	110

SIYOSAT

I.M.Arzimatova	
Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari	113
L.S.Yuldasheva	
Diniy an'analar va xalq tabobatining uzviy rivoji: qadimdan islom davrigacha bo'lgan ilmiy-falsafiy tahlil.....	119
B.N.Eshbekov	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida siyosiy kommunikatsiya transformatsiyasi	123
A.X.Borotov	
Xususiy mulkni himoya qilish: milliy amaliyot va xorijiy tajriba	127
J.M.Azamov	
Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va Konstitutsiyaviy qonunchilikning rivojlanish marra-lari.....	132
M.Kenjaye-va	
Yangi O'zbekiston sharoitida jamoat birlashmalarining tutgan o'rni	137
A.A.Ahrorqulov	
Notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni	141

TARIX

O.V.Mahmudov	
Musulmon Sharqi mutafakkirlari asarlarining Yevropaga tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlari	145
T.T.Safarov	
Farg'ona viloyatida rus qishloqlarining paydo bo'lishi tarixidan.....	154
B.X.Abdullayev	
Rahima Aminovanning xotin-qizlar ijtimoiylashuvidagi ilmiy izlanishlari.....	158
N.M.Ikromov, A.A.Fayziyev	
The exchange of tea and horses in trade relations between China and Central Asia	162
Z.Sh.Turg'unboyev	
Badriddin Al-Ayniy va uning Amir Temur haqida qarashlariga umumiy tavsif	166
G.X.Xasanboyeva	
Sovet hokimiyati yillari qishloq xo'jaligida sug'orish tizimining o'rni.....	171
A.Sharafiddinov	
XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg'ona viloyatida paxtachilik va paxta yakkaxokimligining vujudga kelishi	174

ILMIY AXBOROT

M.Y.Sultonov	
Tarixiy xotira va ma'naviy meros: Sharq mamlakatlari tajribasi.....	179



UO'K: 658.012.2

JAMIYAT RIVOJLANISHIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNING AHAMIYATI
THE IMPORTANCE OF STRATEGIC PLANNING IN THE DEVELOPMENT OF
ЗНАЧЕНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО ПЛАНИРОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Mamayusupov Umidjon Kurbanovich

 Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Gumanitar fanlar kafedrası dotsenti, f.f.f.d.
 (PhD)
Abstract

This article analyzes the role and importance of strategic planning in the development of society. The article examines strategic planning as the primary tool for ensuring economic, social, and political stability. Also, national strategies implemented in Uzbekistan were analyzed, and proposals aimed at increasing the effectiveness of strategic planning in modern conditions were put forward.

Аннотация

В данной статье анализируется роль и значение стратегического планирования в развитии общества. В статье рассматривается стратегическое планирование как основной инструмент обеспечения экономической, социальной и политической стабильности. Также проанализированы национальные стратегии, реализуемые в Узбекистане, и выдвинуты предложения, направленные на повышение эффективности стратегического планирования в современных условиях.

Annotatsiya

Ushbu maqolada strategik rejalashtirishning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnı va ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada strategik rejalashtirishni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy vositasi sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan milliy strategiyalar tahlil qilinib, zamonaviy sharoitda strategik rejalashtirishning samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

Key words: strategic planning, scientific cognition of the future, societal development, national development, stability, socio-economic system, state policy, innovative management.

Ключевые слова: стратегическое планирование, научное познание будущего, развитие общества, национальное развитие, стабильность, социально-экономическая система, государственная политика, инновационное управление.

Kalit so'zlar: strategik rejalashtirish, kelajakni ilmiy bilish, jamiyat taraqqiyoti, milliy rivojlanish, barqarorlik, ijtimoiy-iqtisodiy tizim, davlat siyosati, innovasion boshqaruv.

KIRISH

Jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda strategik rejalashtirish muhim ijtimoiy boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. U jamiyatning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlarini belgilab, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda strategik rejalashtirish nafaqat davlat boshqaruvida, balki xususiy sektor, nodavlat tashkilotlar va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida ham muhim o'rin tutmoqda.

Strategik rejalashtirish – bu uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, ustuvor yo'nalishlarni aniqlash va resurslarni samarali taqsimlash jarayonidir. U iqtisodiy siyosatning muhim qismi bo'lib, jamiyatning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Nazariy jihatdan, strategik rejalashtirishning ildizlari. XX asr boshlariga borib taqaladi va bugungi kunda innovasion boshqaruv modellari bilan boyib bormoqda.

XXI asrga kelib rivojlangan davlatlarning taraqqiyoti strategiyaning mohiyati va ahamiyatini o'zida ifodalay boshladi. Yaponiya, Koreya Respublikasi, Germaniya va Singapur kabi davlatlar tajribasi strategik rejalashtirishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ko'rsatadi. Ular uzoq muddatli davlat strategiyalarini qonun bilan mustahkamlab, jamoatchilik va xususiy sektor ishtirokini ta'minlagan holda samarali natijalarga erishgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadida muayan rejalar asosida islohotlar boshlandi. Mustaqillikning dastlabki o'n yilligi davomida mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asoslari yaratildi.

FALSAFA

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov mamlakatda yuzaga kelgan vaziyatga baho berar va uni yanada rivojlantirish yo'llarini belgilar ekan, mavjud qiyinchiliklarni qanday tushunishni quyidagi so'zlarda ifodalaydi: "Mohiyatni tushunib etmasdan, yumuq ko'z va shoshmashosharlik bilan maqsad sari erkin suzishga chiqish mumkin emasligini biz hammamiz yaxshi tushinishimiz kerak. Buning uchun avvalambor, aniq yo'nalishni belgilash, mustahkam kemani tanlash, ishonchli jamoani to'plash, uni og'ir sharoitlarda suzishga o'rgatish va faqat shundan keyin yo'lga chiqish kerak"[3].

Darhaqiqat, yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib shuni alohida ta'kidlash lozimki, jaxon tajribasiga nazar tashlasak biron bir jamiyat, davlat ma'lum bir oldindan belgilanmagan maqsadlarsiz yuksak taraqqiyotga erisha olmaydi. Mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy sharoitlaridan kelib chiqib, kelajakni ilmiy bilishga asoslangan strategiya rivojlanishning "O'zbek modeli" asosini tashkil etuvchi tamoyillar va normalarning to'g'riligini vaqt ko'rsatdi. Eng ustuvor vazifalarni oldindan rejalashtirish va rejalashtirilgan vazifalarni samarali bajarish orqali demokratiya, fuqarolik jamiyati asoslari amalda barpo etildi, inson haq-huquqlari va erkinliklari ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev "O'zbek modeli"ning mantiqiy davomi sifatida "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi"ni ishlab chiqdi. "Harakatlar strategiya"si ham besh bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo'yicha davlat dasturlari qabul qilindi. Xususan, unda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi belgilangan: davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish; qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish; iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish; ijtimoiy sohani rivojlantirish; xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenlikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Jamiyat taraqqiyotini strategik rejalashtirish faqat hozirgi davrning muammosi desak xato bo'ladi, kelajak jarayonlarini oldindan bilish va uni rejalashtirish insoniyat taraqqiyotining barcha davriga xosdir. Abu Ali ibn Sino haqiqiy axloqiy fazilatlarga va ideal jamoaga shu mavjud dunyoda erishish mumkin va buning uchun jamiyatda insonlar o'zaro yordam asosida yashashlari kerak, deb ta'kidlaydi. Jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida bajarishi lozimligini ko'rsatadi. Jamiyat a'zolarining hammasi bu qonunga itoat etishlari, qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi, basharti, poduqohning o'zi adolatsizlikka yo'l qo'ysa, xalqning unga qarshi qo'zg'oloni to'g'ri va bu jamiyat tomonidan qo'llab. Quvvatlanmog'i lozim deb hisoblaydi[4].

Abu Rayxon Beruniy ijtimoiy hayot o'ziga hos "shartnoma" asosida tuzilishini e'tirof etadi: "Inson o'z ehtiyojlarini tushunib, o'ziga o'hshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun o'zaro kelishuvchanlik qabilidagi "shartnoma" shartnoma tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilish ham zarurdir". Fikrini davom etdirib, "insonning qadr - qimmatini o'z vazifasini a'lo darajada bajarishdan iborat, shuning uchun insonning eng asosiy vazifasi va o'rni mehnati bilan belgilanadi. Inson o'z hohishiga mehnati tufayli erishadi", deb yozgan edi u[5]. Umuman Abu Rayxon Beruniy mamlakatning obodongchiligi ilm-fanning gullashida, odamlarning baxti esa uning bilim va ma'rifatida, deb biladi.

Bugungi kunda "strategiya" tushunchasi zamonaviy gumanitar fanlarda mustahkam o'rinish barcha yo'nalishlarni qamrab olmoqda. Shunday bo'lishiga qaramay mazkur tushunchaning tarkibi hozirga qadar to'liq asoslanmagan [6].

Aksariyat darsliklarda strategiya tushunchasi hayotga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish degan ma'noni anglatishi ta'kidlanadi. Izohli lug'atlarda strategiya yaqin va uzoq kelajakni tahlil qilgan holda muddatli boshqaruvni rejalashtirish san'ati ma'noda keltiriladi [7]. Shuningdek, boshqa manbaada "Strategiya ishlab chiqarish va jamiyatdagi mavjud muammolar echimiga yo'l topish, istiqbolli rivojlantirishga yo'naltirilgan omillar bilan bog'liq muayyan yo'nalishni anglatadi"- deb yoziladi[8]. Gumanitar fan sohalarida, "hayotiy strategiya" tushunchasi "hayotiy kelajak", "hayotiy rejalar", "hayotiy yo'l", "hayot ssenariysi" va boshqa qator tushunchalar bilan kesishib ketadi[9].

Ye.I.Goloxova strategiya tushunchasini "xayotiy kelajak" tushunchasidan foydalanib izohlaydi. U "Hayotiy kelajak – inson ijtimoiy qadriyatlarni o'z hayotining individual ma'nosi bilan bog'laydigan, kutilayotgan va umumiy murakkab shakldagi hodisalar sifatida ko'rib chiqishni ma'qul topadi"[10].

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Jamiyat taraqqiyotida strategik rejalashtirish davlat siyosati, iqtisodiy dasturlar va ijtimoiy islohotlarning uzviy qismi hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari rivojlanishning ustuvor sohalarini belgilash, resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ijtimoiy adolat va barqarorlikni saqlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi "Harakatlar strategiyasi"da kelajakning namoyon bo'lishini tahlil qiladigan bo'lsak, strategiyaning mazmun-mohiyati bu-kelajakni ko'rish, maqsadga erishish, uzoq muddatli reja kabi ma'nolarni o'zida namoyon etib, har bir sohani mukammal o'rganish va tahlil qilishni nazarda tutadi.

2025-yilning "Atrof muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb nomlanishi jamiyatimizdagi ekologik va ijtimoiy jarayonlarni to'g'ri anglab etish, xalqning real holati, ularning muammolarini bilish to'g'ri strategiyani amalga oshirishda muhim omil bo'ladi. Harakatlar strategiyasida ekologik muvozanatni saqlash va yashil iqtisodiyotni yangi pog'onaga ko'tarish ko'zda tutilgan. Islohotlarda aholining ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy mammlariga ob'yektiv yondashishni o'zida ifoda etadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev «Bizning vazifamiz – to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyanan holda, o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat'iy amalga oshirishdan iborat» [2]ligini ta'kidlaydi. Guvohi bo'layotganimizdek, kelajagimizni ilmiy o'rganishga asoslangan «Harakatlar strategiyasi» ham strategik rejalardagi vazifalarni amalga oshirish va barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda "Harakatlar strategiyasi", "Yangi O'zbekiston – 2030" dasturi kabi yirik strategik hujjatlar qabul qilindi. Ushbu strategiyalar mamlakatning barcha sohalarini qamrab olib, iqtisodiy diversifikasiya, raqamli iqtisodiyot, ekologik barqarorlik va inson kapitalini rivojlantirishni o'z ichiga olgan.

Bunday strategik yondashuv davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish uchun muayyan vazifalarni bajarishni nazarda tutadi:

- strategik rejalarni amalga oshirishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlarning ishtirokini kengaytirish;
- axborot texnologiyalaridan keng foydalanish orqali tahlil samaradorligini oshirish;
- hududiy rivojlanish strategiyalarini milliy dasturlar bilan uyg'unlashtirish.

XULOSA

Strategik rejalashtirish – jamiyat taraqqiyotining intellektual asosi va boshqaruv madaniyatining yuksak ko'rinishi hisoblanadi. Uning samarali amalga oshirilishi iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat, siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlikni ta'minlaydi. Shu bois, strategik rejalashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Lex.uz // 07.02.2017.
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyanob xalqimiz bilan quramiz// "Xalq so'zi" gazetasi, 2016 yil 15 dekabr.
3. И.А.Каримов.Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир.-Т.,1995. 6-б.
4. Маънавият юлдузлари: Марказий Осиёлик машхур сиймолар, алломалар, адиблар – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001, - 103 б.
5. Педагогика:тарихи. Педагогика олий ўқув юртлари учун қўлланма. К.Ҳошимов, С. Нишонов, М.иномова ва бошқ. – Т.: Уқитувчи, 1996.- 188 б.
6. Психология адаптации и социальная среда: современные подходы, проблемы, перспективы /отв. Ред. Л.Г. Дикая, А.Л. Журавлев. – М.: Институт психологии РАН, 2007.- С.496.
7. Современный словарь иностранных слов / Зув. М.Н. Чупкасова, Л.Н. Черкасова – М.: Феникс, 2009. – С.582-583.
8. Толковый словарь по управлению. М.: Аланс, 1994.- С.168
9. Норкулов д. Шахс ҳаётий стратегияси шаклланишининг психологик хусусиятлари. Дисс. 2022. 37 б.
10. Головаха, Е.И. Жизненная перспектива и ценностные ориентации личности // Психология личности в трудах отечественных психологов. – СПб.: Питер, 2000. – С. 256